

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KOSIMOVA SHAXNOZA JABBORKULOVA

**MAKKAJO‘XORI DURAGAYLARINING ASOSIY EKINDA DON,
TAKRORIY EKINDA SILOS MASSA HOSILDORLIGIGA TUP
QALINLIKLARINING TA’SIRI
(Samarqand viloyati misolida)**

06.01.08 –O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation of agricultural
sciences**

Kosimova Shaxnoza Jabborkulovna

Маккаjo‘xori duragaylarining asosiy ekinda don, takroriy ekinda silos massa hosildorligiga tup qalinliklarining ta’siri (Samarqand viloyati misolida).....3

Косимова Шахноза Жабборкуловна

Влияние густоты стояния на урожайность зерна гибридов кукурузы в основной культуре и силосной массы при повторном посеве (в условиях Самаркандской области).....21

Kosimova Shaxnoza Jabborkulovna

The influence of bush thickness on grain yield in the main crop and silage mass yield in the secondary crop of maize hybrids (as an example of Samarkand region)39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KOSIMOVA SHAXNOZA JABBORKULOVA

**MAKKAJO‘XORI DURAGAYLARINING ASOSIY EKINDA DON,
TAKRORIY EKINDA SILOS MASSA HOSILDORLIGIGA TUP
QALINLIKLARINING TA‘SIRI (Samarqand viloyati misolida)**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4 PhD/.Qx.167 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.andqxai.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalilov Nasriddin

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmonov Sodiqjon Obidovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Maxmatmurodov Alisher Ulmasovich

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dosent

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti (O‘GRITI)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170600, Andijon tuman, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy. Tel: (99874) 373-10-54; faks: (+99874) 373-13-63; e-mail: agai_info@edu.uz; Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma‘muriy binosi, 1 qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99874) 373-10-54.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ da tarqatildi.

(2023 yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

A.Isashov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

A.N.Jo‘rayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dosent

K.S.Komilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.n., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda aholi sonining doimiy ortib borishi mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ekinlar yalpi hosildorligi va hosil sifatini oshirishni taqazo etmoqda. «2019 yilda makkajo'xori dunyoda 162 mln. gektar maydonga ekilgan va 850 mln. tonna don hosili olingan va hosildorlik o'rtacha 5,2 t/ga ni tashkil etgan. Makkajo'xori AQSH va Xitoyda eng ko'p ekilmoqda va dunyoda makkajo'xori ishlab chiqarishning 37% va 21% mos ravishda shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Yevropa Ittifoqining 27 ta davlatida har yili 5 mln. gektarda makkajo'xori silos uchun ekiladi.»¹ Serhosil ekinlarni nav va duragaylarni yaratish hamda ularni yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bu muammoni yechimida muhim ahamiyatga ega. Makkajo'xori dunyoda va respublikamizda keng tarqalgan serhosil va ozuqa ekinlaridan biri hisoblanadi.

Dunyo dehqonchiligida makkajo'xorini don va silos uchun yetishtirishda hosildorlikning muttasil oshib borishi yangi duragay va navlarning yaratilishi, ularni ishlab chiqarishga jadal joriy qilish hamda don va silosga yetishtirish texnologiyalarining takomillashtirilib borilishi natijasida amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan oziq-ovqat ekinlari, xususan makkajo'xori yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda chorva mollarini uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratishda sug'oriladigan yerlarda makkajo'xorini don, silos uchun yetishtirish muhim ahamiyatga molik. Makkajo'xorini don va silos massasi uchun yetishtirish texnologiyasida hosildorlikni oshirishning muhim usuli nihollar qalinligining maqbul sonini aniqlash, don va silos massasi uchun yetishtirilganda navlar, duragaylar biologik xususiyatlari, mintaqa tuproq-iqlim sharoitini inobatga olgan holda yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Dehqonchilik madaniyatining yuksalishi, ma'dan o'g'itlarni ko'p miqdorda berilishi natijasida makkajo'xorini qalin ekish imkoni tug'ildi, bu esa makkajo'xorini silos massasi uchun takroriy ekishda tup qalinliklarini oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonida² chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobarga oshirish, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash kabi muhim ustivor vazifalar belgilangan. Shuning uchun makkajo'xori o'simligining asosiy va takroriy ekin uchun yetishtirish agrotexnologiyalaridan asosiy qismi hisoblangan tup qalinliklarini to'g'ri tanlash hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish va ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublika Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga

¹ <https://www.yara.ru/crop-nutrition/maize/key-facts/world-production/#::~:tex>

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 martdagi 259-sonli «2019 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risida»³ gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda va xorijda makkajo'xori yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha M.Litovchenko, D.Abdukarimov, F.Ismoilov, R.Valiyev, U.Xoldorov, X.Azimov, I.Massino, A.Massino, M.Saltas, V.Chirkov, Z.Umarov, U.Isaqlulov, Z.Tursunxo'jaev, B.Qurbanov, M.Qosimov, V.N.Bagrinseva, A.V.Bessonova, I.E.Vinokurov D.I.Eremin, S.V.Kokovixin, P.V.Pisarenko, V.G.Pilyarskiy, N.M.Nosov, I.S.Sisenko, A.M.Azarenko, V.Mandic, Z.Bijelic, Z.Tomis, J.Nan, J.Yang, H.Peng va boshqalar o'z tadqiqotlarida makkajo'xori yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish borasida tadqiqotlar o'tkazishgan.

Hozirgi paytga qadar, makkajo'xori tup qalinligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar juda ko'p bo'lgan va ular respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlarida, makkajo'xorining turli navlari va duragaylari ustida o'tkazilgan, ammo bu nav va duragaylarning ko'pchiligi hozirgi vaqtda ishlab chiqarishdan olingan va qo'llanilmaydi. Makkajo'xorining yangi yaratilgan navlari va duragaylarining ekish me'yorlari, tup qalinligini bahorgi (asosiy) va takroriy (yozda ang'izga) ekish muddatlarida turli qalinlikda ekishni o'rganish asosida eng yuqori don va silos massa hosildorligini ta'minlaydigan maqbul tup qalinliklarini Samarqand viloyati sug'oriladigan yerlari sharoitida aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №01980004512-«Zarafshon vohasiga moslashgan yuqori hosilli va sifatli o'simlikshunoslik mahsulotlari ishlab chiqarishda ilmiy jihatdan asoslangan, ekologik toza mahsulot yetishtirishni ta'minlovchi yangi resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2016-2019 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati sharoitida asosiy va takroriy ekiladigan makkajo'xori duragaylaridan yuqori don va silos massa hosili olishni ta'minlaydigan maqbul ekish me'yori va tup qalinligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

turli me'yor va qalinlikda ekilgan makkajo'xori duragaylari urug'larining dala unuvchanligi, o'simliklarning hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishini, o'simliklarda don hosil qilishda qurigan barglar miqdori, ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, ildiz massasini aniqlash;

o'simliklarning fotosintetik faoliyatiga ekish me'yori va tup qalinligining ta'sirini aniqlash;

³ O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi.

ekish me'yori va tup qalinligining makkajo'xori duragaylarining don va silos massa hosildorligiga, hosil strukturasi, don chiqimi, don va silos massaning ozuqaviy qiymati, ozuqa birligi chiqimiga ta'sirni aniqlash;

don va silos massa uchun makkajo'xori yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini tup qalinliklariga bog'liqligini asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari, makkajo'xorining O'zbekiston Respublikasi Davlat reestriga kiritilgan "Ўзбекистон 601ЕСВ" va "Карасув 350АМВ" duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmeti ekish me'yori va tup qalinligi, o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, ildiz tizimi, asosiy ekinda don uchun va ang'izga ekilganda silos massa uchun hosildorligi, mahsulotning sifati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarini o'tkazish, fenologik kuzatish va biometrik o'lchashlar, tuproq va o'simlik namunalarini olish hamda ularning tahlillari «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», «Методы биохимического исследования растений», «Методика полевого опыта» singari uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilib, olingan natijalar Microsoft Excel dasturida statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida ilk bor makkajo'xorining o'rtapishar va ertapishar duragaylarini don uchun asosiy ekinda maqbul ekish me'yorlari, tup qalinligi ekilish maqsadi inobatga olingan holda aniqlangan;

o'rganilgan texnologik usullarning o'simlikning o'sish dinamikasi, so'ta strukturasi, barg yuzasi, fotosintetik potensial, fotosintez sof mahsuldorligi, ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, ildiz massalariga ta'siri aniqlangan;

ang'izga ekilgan makkajo'xorining erta va o'rtapishar duragaylarining o'sishi, rivojlanishi, silos massa hosildorligi, ozuqa birligining, hazmlanadigan proteinning chiqimi aniqlangan;

asosiy va ang'izga ekilgan makkajo'xori duragaylarining yetishtirish texnologiyasini ekish me'yorlari xamda tup qalinligini maqbullashtirish orqali hosildorlikni hamda, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilanganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining sug'oriladigan yerlari sharoitida makkajo'xorining "Ўзбекистон 601ЕСВ" va "Карасув 350АМВ" duragaylari uchun maqbul ekish me'yorlari va tup qalinligi aniqlangan;

maqbul ekish me'yorlari va tup qalinligi ta'sirida "Ўзбекистон 601ЕСВ" va "Карасув 350АМВ" duragaylaridan asosiy ekinda muvofiq holda gektariga 75 ming dona urug' (25,3 kg/ga va 24,0 kg/ga), ekilganda 80,1; 65,7 s/ga don hosili olinishi aniqlangan;

takroriy ekinda ekish me'yori 105 ming dona urug' (35,4 va 33,6 kg/ga) duragaylarga mos ravishda 47,1 va 39,2 t/ga silos massa hosili olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va laboratoriya tajribalari uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilinganligi,

nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, ilmiy va amaliy natijalarni tadqiqot olib borilgan yillarda mutaxassislar tomonidan aprobasiyadan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalari mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, natijalarning ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilinganligi, shuningdek ilmiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, makkajo'xori "Ўзбекистон 601ECB" va "Капачув 350АМВ" duragaylarining bahorda asosiy va ang'izda takroriy ekilganda urug'larning dala unuvchanligi, o'simliklarning hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishi, fazalararo davr davomiyligi va o'suv davri, barglarning o'suv davri davomida hayotchanligi, ekinzorning fotosintetik faoliyati, hosildorlik, ozuqa birligi va hazmlanadigan proteinning chiqimi, so'ta strukturasi, ildiz tizimining rivojlanish xususiyatlari asosida maqbul ekish me'yori va tup qalinliklari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, "Ўзбекистон 601ECB" va "Капачув 350АМВ" duragaylarini bahorda don uchun ekilganda 55 ming dona/ga (st) nisbatan tup qalinligi 75 ming dona/ga (25,3; 24 kg/ga) ekilganda 15,2 va 12,0 s/ga don hosili ko'p olinganligi, ang'izga takroriy ekilganda "Ўзбекистон 601ECB" va "Капачув 350АМВ" duragaylarida silos massa hosili tup qalinligi 55 ming dona/ga (st)ga nisbatan mos ravishda 105 ming dona/ga (35,0; 33,4 kg/ga) ekilganda silos massa hosili 152; 147 s/ga oshganligi hamda mahsulot tannarxi pasayganligi va iqtisodiy samaradorligi oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida asosiy va takroriy ekin sifatida makkajo'xorini ekish me'yorlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Ilmiy tadqiqot ishi natijalari yuzasidan «Samarqand viloyati sharoitida asosiy va takroriy ekilgan makkajo'xori duragaylaridan yuqori don va silos massa yetishtirish» mavzusida tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (2021 yil 30 iyun). Mazkur tavsiyanoma bugungi kunda fermer xo'jaliklari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur texnologiyaning joriy qilinishi natijasida o'rtacha "Ўзбекистон 601ECB" duragayidan 80,1 s/ga va "Капачув 350АМВ" duragayidan esa 67,8 s/ga don hosili olingan ang'izda ekilganda "Ўзбекистон 601ECB" duragayidan 47,1 t/ga va "Капачув 350АМВ" duragayidan esa 39,2 t/ga silos massa olishga erishilgan. 1 gektar maydondan 7500000 so'mgacha sof daromad olinib, rentabellik darajasi 66 % gacha oshgan.

Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida makkajo'xori duragaylarini asosiy va takroriy ekin uchun ekish me'yorlarini maqbullashtirilishi orqali yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari Samarqand viloyati Bulung'ur, Jomboy va Tayloq tumanlaridagi chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida jami 104 gektar maydonga joriy qilingan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 16 sentyabrdagi 02/025-3732-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda SamDVMCHB Uning professor-o'qituvchilari hisobot konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta tavsiyanoma, 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan

Dissertatsiyaning «**Makkajo'xori mahsuldorligiga tup qalinliklarining ta'sirini zamonaviy adabiyotlarda o'rganilish holati**» deb nomlangan birinchi bobida xorijda va respublikamizda mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda o'rganilayotgan omillar bo'yicha chop etilgan ma'lumotlar batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, makkajo'xoring ahamiyati, ekish me'yorlarining don va silos massa hosildorligiga ta'siri borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari tahlili keltirilgan va xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarni o'tkazish sharoiti va tadqiqot uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish uslublari hamda tajribada qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlar qayd qilingan.

Dala tajribalari (2016-2019 y.y.) Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida joylashgan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'quv-tajriba xo'jaligining o'tloqi-bo'z tuproqlarining xaydalma qatlami agrokimyoviy tavsifi quyidagicha: tuproq haydov (0-30 sm) va xaydov osti (30-60 sm) qatlamlarida gumus miqdori 1,20; 0,08%, umumiy azot 0,11; 0,13 kaliy; fosfor 0,11; 0,163 umumiy kaliy 1,76; 1,62% gacha mavjud ekanligi, harakatchan fosfor bilan ta'minganligi bo'yicha juda kam, almashinuvchan kaliy bo'yicha kam ta'minlangan tuproqlar guruhiga kirishi aniqlangan. Dala tajribalarini qo'yishda tajriba paykalchalarining o'lchami 50 dan 100m² gacha 4 takrorli qilib o'tkazildi.

Tajribalardagi barcha kuzatish, o'lchash va tahlillar «Dala tajribalarini tarkibidagi oziqa moddalar miqdorlarini aniqlashda «Методы агрохимических анализов почв и растений», «Тупроқ mikrobiologiyasi va biokimyosi uslublari» uslubiy qo'llanmalaridan foydalangan. Olingan ma'lumotlarning statistik tahlili В.А.Доспеховning «Методика полевого опыта» qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **«Asosiy ekinda don uchun yetishtirilgan makkajo'xorining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga tup qalinliklarining ta'siri»** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan yillarda makkajo'xorining bahorda asosiy ekinda 45, 55, 65, 75 va 85 ming dona/ga ekilgan variantlarda urug'larning dala unuvchanligi, o'simliklarning hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishi, o'sishi rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, hosildorligi, ozuqa birligi, protein chiqimi, begona o'tlar bilan ifloslanish darajasi, ildiz tizimiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Asosiy ekinda makkajo'xori duragaylari urug'larining dala sharoitidagi unuvchanligi tuproqdagi namlikga, havo va tuproq haroratiga ekish me'yorlariga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan. Makkajo'xori o'simligi tup qalinligining oshib borishi bilan rivojlanish fazalarining boshlanishi kechikkan, donning sut-mum pishish fazalararo davrining boshlanishi tig'iz (85 ming dona/ga) va siyrak (45 ming dona/ga) variantlar o'rtasidagi farq “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayi 4 kunga, “Карасув 350АМВ” duragay-5 kunga farq qilgan.

“Ўзбекистон 601ЕСВ” va “Карасув 350АМВ” duragaylarida so'ta hosil qilish va donlarning pishish oraliq'idagi davr mos ravishda 45-46 va 31-32 kunni tashkil qilgan. Makkajo'xori duragaylari don uchun ekilganda tup qalinligiga bog'liq holda “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayi o'suv davri 116 dan 123 kungacha, “Карасув 350АМВ” duragayida esa 93 kundan 97 kungacha o'zgarganligi aniqlangan.

Makkajo'xorida umumiy barglar miqdoriga nisbatan qurigan barglar ulushi turlicha bo'lishi, bu ularning morfo-biologik xususiyatlariga bog'liq holda o'zgarishi qayd etilgan. “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida don hosil qilish davrida qurigan barglar miqdori tup qalinligi 45 ming dona/ga bo'lganda 16,3%, tup qalinligi 85 ming dona/ga bo'lganda esa 21,1 % ni, “Карасув 350АМВ” duragayida esa tegishlicha 7,6 va 10,5% ni tashkil qilgan. Makkajo'xori duragaylarining barg yuzasi o'simlik tup soni qalinligining oshib borishi bilan ko'payib borgan. Barg yuzasi maydoni “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida o'simlik tup soni qalinligi 45 ming dona/ga bo'lganda 49,5 ming m²/ga ni, 85 ming dona/ga bo'lganda 67,6 ming. m²/ga ni tashkil qilgan.

Makkajo'xori rivojlanishining boshlang'ich bosqichida (10-12 barg) quruq modda to'planishi ekish me'yori, tup qalinligiga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan. “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida o'simlik tup qalinligi 75 ming dona/ga bo'lganda quruq modda hosili 165,9 s/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, “Карасув 350АМВ” duragayida tup qalinligi 75 ming dona/ga bo'lganda 151,3 s/ga quruq modda to'plangan.

Fotosintez sof mahsuldorligi makkajo'xori 10-12 ta barg chiqargan va ro'vak chiqarish davrida undan keyingi bosqichlaridagiga nisbatan bir muncha yuqori

bo'lib, tup qalinligi 45 ming dona/ga bo'lganda 10-12 barglar-ro'vak hosil qilish davrida "Ўзбекистон 601ECB" duragayida $11,2 \text{ g/m}^2$ *sutka, "Карасув 350AMB" duragayida $12,1 \text{ g/m}^2$ *sutkani tashkil qilgan.

Asosiy ekinda ekilgan "Ўзбекистон 601ECB" duragayi tup soni qalinligi 45 ming dona/ga bo'lganda o'simliklar orasidagi begona o'tlar ho'l massasi $144,3 \text{ g/m}^2$, ekish me'yori 55 ming dona/ga oshirilganda $132,3 \text{ g/m}^2$, yoki tup qalinligini mos ravishda oshib borishi bilan begona o'tlar massasini kamayishi sezilarli bo'lishi kuzatildi. Bunga tup qalinligi 65 ming dona/ga dan 75 ming dona/ga ga oshirilganda orasidagi farq $7,8 \text{ g/m}^2$, 75 ming dona/ga dan 85 ming dona/ga oshirilganda $32,5 \text{ g/m}^2$ kamayishi aniqlandi. Tup soni 45 mingdona/ga dan 85 ming dona/ga oshirilganda begona o'tlar quruq massasi $32,0 \text{ g/m}^2$ dan $17,5 \text{ g/m}^2$ gacha kamaygan. Gerbitsidlar qo'llanilishi makkajo'xori vegetatsiya davrining boshida begona o'tlarni sezilarli darajada kamayishini ta'minlaydi va ularni yo'qotilishiga sharoit yaratdi. Lekin, tadqiqotlarimizda makkajo'xori vegetatsiyasi oxirlashgan sari o'tlar bilan ifloslanish darajasi oshib borgan. Tajribaning nihollar siyrak joylashgan variantlarda o'simliklar qalin joylashgan variantlariga nisbatan begona o'tlar bilan ifloslanish darajasi yuqori bo'ldi.

"Карасув 350AMB" duragayida tup soni 45 ming dona/ga dan 85 ming dona/ga oshirilganda begona o'tlarni xo'l massasi $156,8 \text{ g/m}^2$ dan $92,5 \text{ g/m}^2$ kamaygan bo'lsa, quruq massasi muvofiq holda $34,8 \text{ g/m}^2$ dan $20,5 \text{ g/m}^2$ gacha kamayganligi aniqlandi. Makkajo'xorining "Карасув 350AMB" duragayida 1 m^2 dagi begona o'tlarning xo'l, shuningdek quruq massasi ham "Ўзбекистон 601ECB" duragayiga nisbatan sezilarli darajada ko'p bo'lishi kuzatildi. Bunga sabab "Карасув 350AMB" duragayi barglarining kattaligi, soni "Ўзбекистон 601ECB" duragaylariga nisbatan kamligi, binobarin begona o'tlarni saqlash darajasi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, begona o'tlar massasining keskin kamayishi ekinlar qalinligi o'simliklarning maydon birligiga nisbatan bir tekisda joylashishi bilan bog'liqdir. Bu tuproq yuzasini makkajo'xori barglari bilan to'liq yopilishi, begona o'tlarning o'sish va rivojlanishining to'xtatilishini ta'minlaydi. Qayd qilish kerakki, makkajo'xorining pishish darajasi bo'yicha turli xil bo'lgan duragaylari asosiy bahordagi ekish muddatida ekinlarning begona o'tlar bilan ifloslanish darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, makkajo'xorining "Ўзбекистон 601ECB" duragayi ekilgan paykalchalarda begona o'tlarning soni, massasi "Карасув 350AMB" duragayi ekilgan paykalchalardagiga nisbatan kam bo'lgan. Bizning tahlilimiz natijalariga ko'ra, o'zining biologik xususiyatlaridan kelib chiqib o'rta-kechpishar duragaylar barg yuzasi maydonini erta-o'rtapishar duragaylarga nisbatan ancha kengaytirgan, bu esa tuproq yuzasini barglar bilan zich yopilishini ta'minlagan. Bundan tashqari, o'rta-kechpishar duragaylar katta hajmdagi ildiz tizimining shakllanishi hisobiga tuproqdan ko'p miqdorda ozuqa moddalarni o'zlashtiradi, ozuqa moddalar va namlik uchun kurashda begona o'tlarga erta-o'rtapishar duragaylarga nisbatan o'rtapishar duragaylar kuchli raqobatchi bo'lgan, bu esa begona o'tlarni keskin kamayishiga olib kelgan va ularning vazni ham pasaygan.

Takroriy ekinda ekilgan “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayi tup soni qalinligi 55 ming dona/ga bo‘lganda begona o‘tlar ho‘l massasi 128,4 g/m², 75 ming dona/ga bo‘lganda-103,2 g/m², 105 ming dona/ga bo‘lganda esa atigi 78,3 g/m²ni tashkil qildi. Begona o‘tlarning quruq massasi tegishlicha 28,5, 24,8 va 17,4 g/m² ga teng bo‘ldi. “Карасув 350АМВ” duragayi tup soni qalinligi 55 ming dona/ga bo‘lganda begona o‘tlar ho‘l massasi 137,3 g/m², 75 ming dona/ga bo‘lganda-117,6 g/m², 105 ming dona/ga bo‘lganda esa atigi 91,5 g/m²ni tashkil qildi. Begona o‘tlarning quruq massasi tegishlicha 30,5, 26,1 va 20,3 g/m² ga teng bo‘ldi. Gerbitsidlar qo‘llanilishi makkajo‘xori vegetatsiya davrining boshida begona o‘tlarni yo‘qotilishiga sharoit yaratdi. Lekin, makkajo‘xori o‘tlar bilan ifloslanish darajasi oshib bordi. Tajribaning nihollar siyraklashtirilgan variantlarda o‘simliklar qalin joylashgan variantlariga nisbatan begona o‘tlar bilan ifloslanish darajasi yuqori bo‘ldi. Bizning fikrimizcha, begona o‘tlar massasining keskin kamayishi ekinlar qalinligi o‘simliklarning maydon birligiga nisbatan bir tekisda joylashishi bilan bog‘liqdir. Bu tuproq yuzasini makkajo‘xori barglari bilan to‘liq yopilishi, begona o‘tlarning o‘sish va rivojlanishining to‘xtatilishini ta’minlaydi. O‘simliklar tup soni qalinlasha borgan sari begona o‘tlar bilan ifloslanish darajasi kamaya borgan.

1-jadval

Asosiy ekin sifatida ekilgan makkajo‘xori duragaylari tup qalinligining o‘simlik morfologik ko‘rsatkichlariga ta’siri, sm

O‘simlik tup qalinligi, ming/ga	O‘simlik bo‘yi		So‘ta solish balandligi, sm		So‘ta diametri, sm	
	“ Ўзбекистон 601ЕСВ”	“ Карасув 350АМВ”	“ Ўзбекистон 601ЕСВ”	“ Карасув 350АМВ”	“ Ўзбекистон 601ЕСВ”	“ Карасув 350АМВ”
45	315,4	257,7	96,2	87,6	4,7	4,8
55(st)	312,2	254,8	96,4	88,2	4,5	4,6
65	311,2	251,3	98,8	89,3	4,0	4,4
75	308,2	248,7	99,6	90,1	3,9	4,2
85	307,5	245,6	101,2	90,7	3,5	4,0

Bundan tashqari, o‘rtapishar duragaylar katta hajmdagi ildiz tizimining shakllanishi hisobiga tuproqdan ko‘p miqdorda oziqa moddalarni olib chiqadi, ozuqa moddalar va namlik uchun kurashda begona o‘tlarga o‘rtapishar duragaylarga nisbatan kuchli raqobatchi bo‘ladi, bu esa begona o‘tlarni yo‘qotilishiga olib keladi va ular biomassasi kamayadi. Dalada o‘simliklarning bir tekis joylashishi begona o‘tlarni ancha samarali yo‘qotilishini ta’minlaydi.

Asosiy ekinda ekilganda baland bo‘yli “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida don hosil qilish davrida qurigan barglar miqdori tup soni qalinligi 45 ming/ga bo‘lganda 16,3%, tup qalinligi 85 ming dona/ga bo‘lganda esa 21,1 % ni, “Капасув 350АМВ” duragayida esa tegishli 7,6 va 10,5% ni tashkil qildi. Bu duragaylar o‘zining o‘sishi va rivojlanishi uchun katta miqdorda yorug‘lik va oziqlanish maydonini barcha shunga tenglashtirilgan sharoitlarda makkajo‘xorining o‘rtapishar duragaylari bu ko‘rsatkich bo‘yicha ertapishar duragaylarga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladi, bu barglar shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishi davomiyligi dinamikasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Don uchun ekilgan makkajo‘xori duragaylarini o‘rganilayotgan xususiyatlariga bog‘liq holda poyadagi barglar umumiy soni o‘zgarib turadi. Lekin “Капасув 350АМВ” duragayida barglar soni “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayiga nisbatan bo‘lgan. Albatta, bu ko‘rsatkich qo‘llanilgan agrotexnikasi, sug‘orish, oziqlanish tartibi va tup qalinliklariga bog‘liq holda o‘zgarib turishi mumkin. Don hosil bo‘lish davrida makkajo‘xorining o‘rganilayotgan ikkala duragayida faoliyat yuritayotgan barglar soni tup soni 45 ming dona/ga bo‘lganda eng ko‘p bo‘ldi va “Ўзбекистон 601ЕСВ” 20,0 dona, “Капасув 350АМВ” duragayida 14,0 donani tashkil qildi. O‘simlik vegetatsiyasining oxirgi fazalarida faoliyat yuritayotgan barglar soni har ikkala duragayda ham pastki yaruslardagi barglarning qurishi hisobiga kamayib borishi kuzatildi va donning sut-mum pishish davrida qurigan barglar foizi 10-12 barglar fazasiga nisbatan 45 ming dona/ga variantida “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida 57,2 %, “Капасув 350АМВ” duragayida esa 54,2% ni tashkil qilgan. Faoliyat yuritayotgan va qurigan barglar bunday miqdori o‘simlik tup soni qalinligi 45 ming/ga bo‘lganda ta‘minlandi. O‘simlik tup soni qalinligi 85 ming/ga gacha oshirilganda qurigan barglar miqdori oshdi va “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida-42,0% “Капасув 350АМВ” duragayida esa 21,7% ni tashkil qildi.


Bunday holat optimal yorug‘lik rejimining ta‘minlanishi, bir o‘simlikka mo‘ljallangan ozuqa maydonining kengayishi va makkajo‘xori rivojlanishi fenologik bosqichlarning tez o‘tishi bilan bog‘liq. Makkajo‘xori barglarining shakllanishi va faoliyat yuritilishining davomiyligi duragaylarning morfo-biologik xususiyatlariga bog‘liq. O‘simlik tup soni qalinligining oshishi bilan faoliyat yurituvchi barglar soni esa aksincha oshadi.

Takroriy ekinda ekilgan “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida tup soni qalinligi 55 ming/ga bo‘lganda poyadagi barglar soni 20,0 dona, 105 ming/ga bo‘lganda 16,3 dona, “Капасув 350АМВ” duragayida tegishli 14,0 va 10,6 donani tashkil qildi.

Makkajo‘xori duragaylarida umumiy barglar miqdoriga nisbatan qurigan barglar ulushi turlicha bo‘ldi, bu ularning morfobiologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Baland bo‘yli “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida don hosil qilish davrida qurigan barglar miqdori tup soni qalinligi 55 ming/ga bo‘lganda 16,3%, 105 ming/ga bo‘lganda esa 25,2% ni, “Капасув 350АМВ” duragayida tegishli 2,1 va 10,1% ni tashkil qildi. Demak, makkajo‘xori duragayi qancha kechpishar bo‘lsa, poyasida shuncha ko‘p barg hosil bo‘ladi, ular orasida qurigan barglar foizi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu kechpishar duragaylar o‘zining o‘sishi va rivojlanishi uchun katta miqdorda yorug‘lik va oziqlanish maydonini barcha shunga tenglashtirilgan

sharoitlarda makkajo‘xoring ertapishar duragaylari bu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtapishar duragaylarga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladi, bu barglar shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishi davomiyligi dinamikasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yozgi (ang‘izga) ekish usulida makkajo‘xorini o‘rganilayotgan biotiplarining morfobiologik xususiyatlariga bog‘liq holda poyadagi barglar umumiy soni o‘zgarib turadi. Lekin “Қарасув 350АМВ” duragayida barglar soni “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayiga nisbatan o‘rtacha 2,7 donaga kam bo‘ldi. Don hosil bo‘lish davrida makkajo‘xoring o‘rganilayotgan ikkala duragayda ham faoliyat yuritayotgan barglar soni eng ko‘p bo‘ldi va “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida 17,8 dona, “Қарасув 350АМВ” duragayida 12,7 donani tashkil qildi. Keyinchalik faoliyat yuritayotgan barglar soni pastki yaruslardagi barglarning qurishi hisobiga kamaydi va donning sut-mum pishish davrida qurigan barglar foizi “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida 9,0%, “Қарасув 350АМВ” duragayida esa 7,7% ni tashkil qildi. Faoliyat yuritayotgan va qurigan barglar bunday miqdori o‘simlik tup soni qalinligi 55 ming/ga bo‘lganda ta‘minlandi. O‘simlik tup soni qalinligi 105 ming dona/ga gacha oshirilganda qurigan barglar miqdori oshdi va “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida 22,0 %, “Қарасув 350АМВ” duragayida esa 21,7% ni tashkil qildi.



1-rasm. Don hosildorligi st/ga

Bizning fikrimizcha bunday holat optimal yorug‘lik rejimining ta‘minlanishi, bir o‘simlikka mo‘ljallangan oziqa maydonining kengayishi va makkajo‘xori rivojlanishi fenologik bosqichlarning tez o‘tishi bilan bog‘liq. Demak, makkajo‘xori barglarining shakllanishi va faoliyat yuritilishining davomiyligi duragayning morfo-biologik xususiyatlariga bog‘liq. O‘simlik tup soni qalinligining oshishi bilan faoliyat yurituvchi barglar soni esa aksincha oshadi. Barglarning umumiy soni, shu jumladan faoliyat

yurituvchi barglar soni qonuniy ravishda kamayadi, qurigan barglar soni esa aksincha oshadi. Barglarning umumiy soni, shu jumladan faoliyat yurituvchi va qurigan barglar har ikkala ekish usulida ham amalda o'zgarishsiz qoldi.

Makkajo'xori o'simligi o'zining baland bo'yli, barglari yirikligi bilan o'tsimon o'simliklar orasida ajralib turadi. Shuning uchun tup qalinligini oshirish bilan ekinlarni begona o'tlar bilan ifloslanishi ma'lum darajada pasayib borishi qayd etilgan.

“Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayi tup soni qalinligi tup soni 45 ming dona/ga dan 85 ming dona/ga oshirilganda begona o'tlar quruq massasi 32,0 g/m² dan 17,5 g/m² gacha kamaygan. “Капачув 350АМВ” duragayida tup soni 45 ming dona/ga dan 85 ming dona/ga oshirilganda begona o'tlarni xo'l massasi 156,8 g/m² dan 92,5 g/m² kamaygan bo'lsa, quruq massasi muvofiq holda 34,8 g/m² dan 20,5 g/m² gacha kamayganligi aniqlangan.

“Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida so'talash balandligi tup qalinligi 45 ming dona/ga bo'lganda 96,8 sm dan, tup qalinligi 85 ming dona/ga bo'lganda 101,2 sm ni tashkil qilgan. “Капачув 350АМВ” duragayida so'talash balandligi 45 ming dona/ga bo'lganda 87,6 sm, 85 ming dona/ga bo'lganda 90,7 sm bo'lgan.

Makkajo'xori duragaylarining ekish me'yori 45 ming dona/ga dan 85 ming dona/ga gacha oshirilganda so'talash balandligi “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida 5,0 sm, “Капачув 350АМВ” duragayida 3,1 sm ga oshgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, makkajo'xorining tezpisharligi bo'yicha turlicha bo'lgan duragaylarida ildiz tizimining mutloq quruq vazni sezilarli ravishda o'zgarib turadi. “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayida tup qalinligi 55 ming dona/ga (st) bo'lganda tuproqning 0-60 sm chuqurlikdagi qatlamida bitta o'simlik ildiz tizimining mutloq quruq vazni 71,8 g ni, “Капачув 350АМВ” duragayi esa 55 ming dona/ga tup qalinligida ekilgan variantda 60,5 g tashkil qilgan. “Ўзбекистон 601ЕСВ” duragayi ekish me'yori 75 ming dona/ga ekilgan variantda 46,3 g ni, “Капачув 350АМВ” duragayida 75 ming dona/ga tup qalinligida esa 41,2 g ni tashkil qilgan.

Dissertatsiyaning «**Tup qalinliklarining takroriy ekilgan makkajo'xori duragaylari silos massa hosildorligiga ta'siri**» deb nomlangan to'rtinchi bobda mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari bayon qilingan.

